“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=367

2026-yil
5-son
may
ISSN 3093-8546



Xalqaro migratsiya huquqida “migrant” tushunchasining tasnifi va huquqiy maqomi

Ulugbek Muxamedov,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: ulugbekmuxamedov1966@gmail.com

Аннотация. Maqolada xalqaro migratsiya huquqida “migrant” tushunchasining tasnifi va huquqiy maqomi nazariy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Muallif xalqaro huquqda ushbu tushunchaning yagona, yuridik majburiy ta’rifi mavjud emasligi migrantlarning huquqiy himoyasida “himoya bo‘shliqlari”ni yuzaga keltirayotganini asoslaydi. Tadqiqotda “migrant”, “qochoq”, “panoh izlovchi”, “mehnat migranti”, “hujjatlashmagan migrant” va “ekologik migrant” kabi toifalarning o‘zaro farqlari ochib berilgan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi, Kanada, Germaniya va Janubiy Koreya tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, migrantlarni ko‘p mezonli tasniflash zarurati ilmiy jihatdan asoslangan. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida migratsiya sohasini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, yagona terminologik tizimni shakllantirish, Migratsiya kodeksini ishlab chiqish hamda ekologik migrant maqomini qonunchilikda belgilash bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Калит сўзлар. xalqaro migratsiya huquqi, migrant, huquqiy maqom, mehnat migranti, qochoq, panoh izlovchi, hujjatlashmagan migrant, ekologik migrant, migratsiya siyosati, Migratsiya kodeksi.

Аннотация. В статье проводится теоретико-правовой анализ классификации и правового статуса понятия «мигрант» в международном миграционном праве. Автор обосновывает, что отсутствие единого юридически обязательного определения данного понятия в международном праве приводит к возникновению пробелов в правовой защите мигрантов. В исследовании раскрываются различия между такими категориями, как «мигрант», «беженец», «лицо, ищущее убежище», «трудовой мигрант», «недокументированный мигрант» и «экологический мигрант». Особое внимание уделяется сравнительному анализу опыта Европейского союза, Канады, Германии и Республики Корея, на основе которого обосновывается необходимость многофакторной классификации мигрантов. В статье выдвигаются предложения по совершенствованию правового регулирования миграционной сферы в Республике Узбекистан, формированию единой терминологической системы, разработке Миграционного кодекса и законодательному закреплению статуса экологического мигранта.

Ключевые слова. международное миграционное право, мигрант, правовой статус, трудовой мигрант, беженец, лицо, ищущее убежище, недокументированный мигрант, экологический мигрант, миграционная политика, Миграционный кодекс.

Annotation. The article provides a theoretical and legal analysis of the classification and legal status of the concept of "migrant" in international migration law. The author argues that the absence of a universally accepted and legally binding definition of this concept in international law creates protection gaps in safeguarding migrants' rights. The study examines the distinctions between such categories as "migrant", "refugee", "asylum seeker", "labour migrant", "undocumented migrant" and "environmental migrant". Particular attention is paid to a comparative analysis of the experience of the European Union, Canada, Germany and the Republic of Korea, which demonstrates the need for a multi-criteria classification of migrants. The article also proposes measures to improve the legal regulation of migration in the Republic of Uzbekistan, including the development of a unified terminological framework, the adoption of a Migration Code and the legal recognition of the status of environmental migrants.

Keywords. international migration law, migrant, legal status, labour migrant, refugee, asylum seeker, undocumented migrant, environmental migrant, migration policy, Migration Code.

Xalqaro migratsiya jarayonlari XXI asr global taraqqiyotining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT)ning 2024-yilgi ma'ruzasiga ko'ra, hozirda dunyo bo'ylab o'z mamlakatlaridan tashqarida yashayotgan shaxslar soni 281 million kishiga – global aholining 3,6 foiziga yetgan [1]. Biroq ushbu misli ko'rilmagan raqam ortida jiddiy huquqiy muammo yashiringan: xalqaro huquqda "migrant" tushunchasining umum e'tirof etilgan, yuridik majburiy kuchga ega bo'lgan yagona ta'rifi mavjud emas.

Hozirgi kunda "migrant" tushunchasini belgilashdagi huquqiy aniqsizlik beshta asosiy muammo ko'rinishida namoyon bo'lmoqda.

Birinchidan, 1951-yilgi "Qochoqlar to'g'risida"gi Konvensiya "migrant" emas, "qochoq" tushunchasini belgilaydi; [2] 1990-yilgi "Mehnat migrantlari" Konvensiyasi "mehnat migranti"ga alohida ta'rif beradi; [3] MTTning 97 va 143-sonli konvensiyalari "ish uchun ko'chib yuruvchi" kategoriyasini mustaqil tushuncha sifatida ishlatadi [4]. Natijada, yagona hodisani tavsiflash uchun parallel va ba'zan bir-birini istisno etuvchi tushunchalar majmuasi yuzaga kelgan.

Ikkinchidan, XMTning 2019-yilgi "Migratsiya lug'ati"da "migrant"ga berilgan ta'rif – "o'z odatiy yashash joyini o'zgartirgan shaxs" [5] yuridik majburiy kuchga ega emas. Bu ta'rif "yumshoq huquq" doirasidan chiqmaydi va davlatlarning o'ziga xos majburiyatlarini belgilamaydi.

Uchinchidan, **"**Irregular migrants" – hujjatsiz yoki noqonuniy migrantlar na qochoq maqomidan, na mehnat migranti maqomidan to'liq foydalana oladi. Bu kategoriya global migratsiya oqimining sezilarli ulushini tashkil etadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 13-moddasida har bir shaxsning erkin harakatlanish va mamlakatni tark etish huquqi mustahkamlangan

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

bo‘lsa-da, [6] ushbu huquqni amalda ta’minlash mexanizmlari zaif qolib ketmoqda.

To‘rtinchidan, amalda “migrant”, “qochoq” va “panoh izlovchi” kategoriyalari doimiy aralashib ketadi. 2018-yilgi Global pakt ushbu muammoni rasmiy darajada tan olgan bo‘lsa-da [7], uning yechimi uchun taklif etilgan mexanizmlar hanuz deklarativ xarakterda qolib ketmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida migratsiya sohasi Konstitusiyaning 23-moddasi [8] O‘zbekiston fuqarolarining mamlakatdan chiqish va unga qaytish huquqi, “Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy holati to‘g‘risida”gi 2021-yilgi Qonun [9] hamda bir qator normativ hujjatlar orqali tartibga solinadi. Shu bilan birga, “migrant” tushunchasini tasniflashning yagona konseptual tizimi milliy qonunchilikda hali shakllanmagan – bu tizimni bugungi realliklarga moslashtirish zarurati ochiq.

“Migrant” tushunchasini tasniflashda ilmiy muhitda asosan ikki yo‘nalish mavjud.

Funksional yondashuv tarafdorlari “migrant” maqomini shaxsning ko‘chish sababidan emas, ko‘chish fakti – odatiy yashash joyini o‘zgartirishdan kelib chiqib belgilash zarurligini ta’kidlaydi. Kyotayl V. “Xalqaro migratsiya huquqi” asarida [10] migratsiya huquqi inson sha’ni va inson huquqlari prinsipidan kelib chiqishi lozimligini asoslab, davlat suverenitetiga asoslangan yondashuvning huquqiy himoyani susaytirishini isbotlagan. Uning nazariyasi Global paktning konseptual asosiga aylanganligi ushbu yondashuvning amaliy ta’sirini ko‘rsatadi.

Maqomga asoslangan yondashuv tarafdorlari, aksincha, farqlash prinsipini himoya qiladi. Gudvin-Gill G.S. va Makadam J. klassik “Xalqaro huquqdagi qochoq” asarida [11] “qochoq” va “migrant” kategoriyalarini aniq farqlashning amaliy ahamiyatini isbotladi: bu farqlash davlatlar uchun *non-refoulement* – majburiy qaytarmaslik prinsipini amalga oshirishda huquqiy aniqlikni ta’minlaydi. Hatauey J.S. o‘z navbatida o‘rtacha pozitsiyani egallab, ikkala toifaning o‘zaro aloqadorligini tan olgan holda, qochoqlarga nisbatan huquqiy himoyaning kuchliroq mexanizmlari zarurligini asosladi [12].

Rus huquqshunosligida Bekyashev D.K. va Ivanov D.V. “Xalqaro-huquqiy tartibga solish” monografiyasida [13] majburiy va mehnat migratsiyasini huquqiy jihatdan farqlashning nazariy asoslarini keng yoritib, “migrant” atamasini batafsil tasnif qilishni – qochoq, panoh izlovchi, apatrid, iqtisodiy migrant, ekologik migrant kabi toifalarga ajratishni xalqaro huquq oldida turgan zarurat deb baholaydi.

Cholevinskiy R. [14] mehnat migrantlari masalasini ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar prizmasida ko‘rib, ularning ish sharoitlari, uy-joy, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohasidagi huquqlari ko‘pincha deklarativ xarakterda qolib ketayotganini ko‘rsatdi. Uning tahlili davlatlar o‘z hududida noqonuniy migrantlarga nisbatan ham insoniylik standartlarini ta’minlashi zarurligini asoslaydi.

Rivojlangan davlatlar tajribasini qiyosiy tahlil qilish “migrant” tushunchasini tasniflashning qaysi modellari amalda samarali ekanligini aniqlashga, ularning ijobiy jihatlarini baholashga va O‘zbekiston uchun mos elementlarni belgilashga imkon beradi.

Yevropa Ittifoqi modeli inson huquqlari va iqtisodiy mezonlarni uyg‘unlashtirishga intilishning namunasi sifatida diqqatga sazovor. 2011/98/YES

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Direktivasi (“yagona ruxsatnoma”) mehnat migrantlari uchun ish va yashash ruxsatnomasini yagona hujjatda mujassamlashtirib, ish sharoitlari, ijtimoiy ta’minot va ta’limga teng kirish huquqini aniq standart sifatida mustahkamladi. “Ko‘k karta” tizimi malakali migrantlar uchun alohida huquqiy rejim yaratdi: huquqiy maqom malaka darajasi, ish haqi miqdori va kasb sohasi mezonlari birligida belgilanadi. Shu bilan birga, Shengen tizimi tashqarisidagi davlatlar fuqarolari uchun ruxsatnoma olishdagi byurokratik to‘siqlar modelning amaliy samaradorligini sezilarli darajada cheklab qolmoqda.

Kanada modeli migrantlarni tasniflash aniqligi jihatidan alohida e’tiborga molik. Express Entry tizimi malakali migrantlarni yillik kvota asosida ball tizimi orqali tanlab qabul qiladi – bunda ta’lim darajasi, ish tajribasi, til bilimi va yosh omillari jamlanib baholanadi. Muvaqqat Xorijiy Ishchi Dasturi (TFWP) vaqtinchalik mehnat migrantlari uchun alohida huquqiy tartibni belgilab, huquqlar va majburiyatlar doirasini shartnoma asosida rasmiylashtiradi. Ushbu yondashuv migrantning iqtisodiy mavqei, malakasi va ko‘chish sababiga ko‘ra tasniflashni amalda ishlayotgan mexanizmga aylantirilgan. O‘zbekiston uchun ahamiyati shundaki, malakaviy migratsiyani rag‘batlantirishning ball tizimiga asoslangan iqtisodiy modeli o‘rnak tarzida moslashtirilishi mumkin.

Germaniya modeli iqtisodiy ehtiyojni huquqiy ta’rif bilan birlashtirish nuqtai nazaridan o‘ziga xos. 2020-yilda kuchga kirgan *Fachkräfteeinwanderungsgesetz* – “Malakali migrantlarning kirishi to‘g‘risida”gi Qonun “ish migrant” tushunchasini YEI fuqarolari bo‘lmaganlar uchun malaka, ish shartnomasi va til bilimi mezonlari birgalikda bajarilishi shartligiga ko‘ra belgiladi. Ushbu yondashuvning asosiy afzalligi ikki tomonlama: bir tomondan, huquqiy aniqlik ta’minlanadi; ikkinchi tomondan, demografik va mehnat bozori ehtiyojlariga moslashuvchanlik saqlanib qoladi. O‘zbekiston uchun kadrlar malakasiga asoslangan migratsiya siyosatini shakllantirishda ushbu model amaliy namuna bo‘la oladi.

Janubiy Koreya modeli rivojlanayotgan davlatlar, xususan mehnat migrantlarini eksport qiluvchi mamlakatlar uchun katta amaliy qiziqish uyg‘otadi. *Employment Permit System* (EPS) – ishga yollash ruxsatnomasi tizimi mehnat migrantlarini aniq huquqiy tartib va shartnoma asosida qabul qilishni ta’minlaydi; migrantlar huquqlari va majburiyatlari yuridik majburiy kuchga ega ikki tomonlama shartnoma orqali kafolatlanadi. O‘zbekiston 2004-yildan EPS tizimi doirasida Koreya Respublikasiga mehnat migrantlarini yuborishga ruxsat olgan davlatlar qatoriga kirib, ushbu tizimning amaliy samarasini bevosita tajriba qilmoqda. Modelning diqqatga sazovor jihati davlat nazorati va migrant huquqlari o‘rtasidagi muvozanatning shartnoma mexanizmi orqali ta’minlanishi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, eng samarali modellar migrantlarni ko‘p mezonli tizimda tasniflaydi: nafaqat kirish maqsadi, balki malaka darajasi, kirish huquqiy asosi, va ko‘chish davomiyligi ham inobatga olinadi. Aynan shu prinsip O‘zbekiston uchun takliflar bazasini tashkil etadi.

Mazkur tadqiqot doirasida amalga oshirilgan tahlil asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.

“Migrant” tushunchasini tasniflashda amaldagi bir mezonli yondashuv metodologik jihatdan yetarli emas deb baholanadi. Uning o‘rniga to‘rt mustaqil mezon – ko‘chishning sababi (iqtisodiy, majburiy, ekologik, aralash), davomiyligi (vaqtinchalik, o‘rta muddatli, doimiy), huquqiy asosi (hujjatlashgan

yoki hujjatlashmagan) va mobillik doirasi (ichki yoki xalqaro) birligida belgilaydigan ko‘p mezonli tasniflash matritsasini xalqaro huquqiy amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv “himoya bo‘shliqlari”ni (protection gaps) bartaraf etishning samarali vositasiga aylanishi mumkin.

Huquqiy maqomidan qat’i nazar, har qanday migrantga nisbatan “asosiy huquqlar daxlsizlik tubi” – tibbiy yordam, shafqatsiz muomaladan himoya, bolalar ta’limi, adolatli sud muhokamasi va xalqaro shartnoma doirasida mustahkamlanishi tavsiya etiladi. Bu huquqiy maqomdan ortiqcha bog‘liqlikni kamaytirib, inson sha’ni prinsipini huquqiy himoyaning mustaqil asosi sifatida o‘rnatadi.

O‘zbekiston Respublikasida migratsiya sohasini tartibga soluvchi normativ bazaning tarqoqligini bartaraf etish maqsadida yagona kodifikatsiyalangan hujjat – Migratsiya kodeksini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Kodeksda barcha migrant kategoriyalari taklif etilgan qolip asosida yagona terminologik tizimda belgilanib, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilishi zarur. Shu bilan birga, vakolatli migratsiya organi ruxsatnoma berishdan tashqari migrantlar huquqlarini monitoring qilish, shikoyatlarni ko‘rish va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni muvofiqlashtirish funksiyalarini ham bajarishi lozim.

Nihoyat, “ekologik migrant” kategoriyasiga O‘zbekiston qonunchiligida alohida huquqiy maqom berilishi tavsiya etiladi. Orol dengizi fojiasi tajribasi ekologik omil va majburiy ko‘chish bog‘liqligini mamlakatimiz uchun abstrakt nazariya emas, aniq huquqiy tartibni talab etadigan amaliy reallik ekanligini isbotlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak “Migrant” tushunchasiga yagona huquqiy ta’rif berish masalasi tor terminologik muammo emas – u migratsiya huquqi tizimini inson huquqlari prinsipi asosida konseptual qayta qurishning dastlabki sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. IOM World Migration Report 2024. – Geneva: International Organization for Migration, 2024. https://worldmigrationreport.iom.int/

2. Convention Relating to the Status of Refugees, Geneva, 28 July 1951. – United Nations Treaty Series. – Vol. 189. – P. 137. https://www.unhcr.org/1951-refugee-convention.html

3. International Convention on the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of Their Families, 18 December 1990. – UN Doc. A/RES/45/158 https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-convention-protection-rights-all-migrant-workers

4. ILO Migration for Employment Convention (Revised), 1949 (No. 97). – Geneva: ILO, 1949. – URL: https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100_ILO_CODE:C097; ILO Migrant Workers (Supplementary Provisions) Convention, 1975 (No. 143). https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100_ILO_CODE:C143

5. IOM Glossary on Migration. 3rd ed. – Geneva: IOM, 2019. – (IML Series No. 34). https://publications.iom.int/books/iml-34-glossary-migration

6. Universal Declaration of Human Rights. – UN General Assembly Resolution 217 A (III), 10 December 1948. https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights

7. Global Compact for Safe, Orderly and Regular Migration. – UN General Assembly Resolution A/RES/73/195, 19 December 2018. https://undocs.org/A/RES/73/195

8. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. 2023 yil yangi tahrir. https://lex.uz/docs/-6445145#-6445509

9. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy holati to‘g‘risida”gi Qonuni, 04.06.2021 yil O‘RQ-692-son https://lex.uz/docs/-5443899?ONDATE=21.09.2024

10. Chetail V. International Migration Law. – Oxford: Oxford University Press, 2019. – 544 p. – ISBN 978-0-19-966009-9.

11. Goodwin-Gill G.S., McAdam J. The Refugee in International Law. – 3rd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – 786 p. – ISBN 978-0-19-920296-9.

12. Hathaway J.C. The Rights of Refugees under International Law. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – 1185 p. – ISBN 978-0-521-53493-4.

13. Bekyashev D.K., Ivanov D.V. Mejdunarodno-pravovoye regulirovaniye vinujdennoy i trudovoy migratsii: monografiya. – M.: Prospekt, 2013. – 392 s.

14. Cholewinski R. Migrant Workers in International Human Rights Law: Their Protection in Countries of Employment. – Oxford: Clarendon Press, 1997. – 408 p. – ISBN 978-0-19-826052-1.